

TOPONIMLARNING LEKSIK TAHLILI

TeRDU talabasi
Abdukarimova Muhabbat
Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva

Annotatsiya: *Har qanday fanning nazariy asoslari takomillashgan sari, uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari ham aniqlashib boradi. Majmuaviy fan sifatida e'tirof etilgan toponimika (yunoncha topos-joy, onyma-nom) geografik nomlarning paydo bo'lishi, yaratilish qonuniyatlari, shakllanishi va rivojlanishi, turlari, transformatsiyasi, hududiy tafovutlari, migratsiyasi, hozirgi holati, ma'no-mazmuni, talaffuzi va yozilishini o'rjanuvchi mustaqil fan hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Toponimlar, geografik terminlar, hududiy tafovutlar, atoqli ot, o'zbek, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq hamda tojik tillari.*

Geografik terminlar turli davr olimlarini o'ziga jalb qilgan va ushbu sohaga oid dastlabki asarlar taxminan ming yil oldin paydo bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy(X asr), Mahmud Koshg'ariy(XI asr), Zahiriddin Bobur (XV asr) geografik terminlaridan foydalanib, ularning ma'no-mazmunini izohlashgan. Ular orasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarini terminshunoslikka oid eng yaxlit va mukammal tarixiy yozma manba deyish mumkin. "Devonu lug'atit-turk" kitobi geografik terminshunoslik sohasida eng muhim ilmiy manba hisoblanadi. Eng muhimi kitobdagagi ayrim geografik terminlar hozirgi vaqtida ham keng qo'llaniladi.

Toponim-(yunoncha, topos-joy, makon, onima-nom,ism) har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi. Masalan: gidronim, oykonim, urbonim, agroonim. [1:6-16]

Geografik nomlar juda uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi bois tarix uchun juda katta ahamiyatga ega. Damashq shaharining shu nom bilan atalganiga uch ming yil bo'ladi. Uni dunyodagi eng keksa nom deb bo'lmaydi. Buxoro, Samarcand, Xorazm kabi toponimlar ham juda qadimiy nomlardan. Shuning uchun ham ularning kelib chiqishi uzil-kesil hal bo'lgan emas. Qanchadan-qancha nomlar yozuv bo'lmasdan oldingi davrdan qolgan. Xalqlar yo'q bo'lib ketgan, tili unitilgan bo'lishi mumkin, lekin geografik joy nomlari saqlanib qolaveradi. O'simlik yoki hayvon yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, nom yashayveradi.[2:14]

O'zbekistonning geografik nomlari, ya'ni toponimiyasi O'rta Osiyo toponimiyasining bir qismi sanaladi. O'rta Osiyodagi geografik nomlarning asosiy qismini hozirgi o'zbek, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq hamda tojik tillari yordamida osongina tushinish mumkin.

Mashhur toponimist olim E.M.Murzayev qayd qilganidek, toponimlar hozirgi mintaqaviy yoki etnografik chegaralarni tan olmaydi. Buning ma'nosi shuki, tojikcha

toponimlar O'zbekiston, Turkmaniston va Qirg'iziston hududlarida, o'zbekcha va qirg'izcha nomlar esa Tojikiston xaritasida ham ma'lum miqdorda mavjud.[3:47]

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, nomning ma'nosи obyektga nom berilayotgan vaqtда muhim, keyinchalik u nazardan biroz chetda qoladi. Binobarin, ko'pincha bizga yaxshi tanish bo'lган geografik nomlarni ham qanday ma'noga ega ekanligini bilmaymiz, faqat zarurat paydo bo'lгanda u haqda o'ylash kerak bo'ladi.

Hayotimizda tartib-qoida muhim sanaladi. Albatda hayot tarzimiz , atrof-muhitimiz, jamiyatimiz, xullas, butun olam tartibli bo'lsa, bu o'zimizga qulay va oson. Joy nomlari, ya'ni toponimlar ham aynan mana shu qulaylikni yuzaga keltirish uchun paydo bo'lган. Bu turli manzillarni tezlik va osonlik bilan topib olishni tezlashtiradi. Hozirgi kunda kichik- kichik qishloqlar, xattoki, ko'chalar ham nomlanmoqda. Lekin bu nomlar zamonaviy hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki nomlanganiga ming yillardan oshib ketgan joy nomlari ham mavjud. Uzoqqa ketmaylik har birimiz istiqomat qilib kelayotgan shahar, qishloq, ovullarning nomi ham bir qancha qadimiyyidir. O'zimiz yashaydigan joy nomlaridan kundalik hayotimizda ko'p foydalanamiz, biroq ko'pchiligidan bu toponimning ma'no-mazmuni haqida ozgina bo'lsa ham o'ylab ko'rmaymiz. Aslida bu nom ham necha yillar oldin o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan yoki shunchaki tavakkaliga bu nom berilmagan. Buning ham o'ziga yarasha sababları bo'lган. Biror inson yashagan, biror voqeа yuz bergen yoki shu joyda nimadir bo'lганligi sababli shunaqa nomlar berilgan bo'lishi mumkin. Shu joyda yashovchi odamlardan yaxshilab so'rab- surishtirilganda bir qancha hikoya-yu rivoyatlarga duch kelasiz.

Keling, Surxondaryo viloyatining bиргина Muzrabot tumanida mavjud bo'lган toponimlarning tahlilini ko'rib chiqaylik, avvalo Muzrabot so'zining o'ziga to'xtalaylik. Nega "rabot" "obod" emas, nega "muz" "tosh" emas? Bunga javobni hozir topamiz: "Muzrabot"-qishloq, Qarshi shahrida Buzravot mahallasi bor. Shunga asoslanib toponimist T.Nafasov Muzrabot "katta rabot" ma'nosidagi Buzurg rabot toponimining o'zgargan shaklidir deydi.

Rabot (arabcha "ot bog'langan joy") – istehkom, savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy(karvonsaroylar ham qaroqchilardan himoya qilingan). Sho'rob. Sho'r+ob morfemik asosi fors-tojik tilida o'zlashgan bo'lib , tuz, namak ma'nosini bildiradi. Asosdagi - ob morfemasi "suv" ma'nosini ifodalaydi. Qishloq nomiga aylangan "Sho'rob" so'zi yasalgan so'z bo'lib, sho'rsuv, tuzli suv ma'nosini ifodalaydi.

Beshqo'ton bu toponim son+ot ko'rinishida, kompozitsiya usulida yasalgan. Bu qishloq haqida bir rivoyat ham mavjud. Qishloqda bir boy odam yashagan va bu odamning besh o'g'li bo'lган. Besh o'g'lining har biri beshta joyda qo'ton(ya'ni mol-qo'ylar saqlanadigan qo'ra, katta molxona) qurib chorvachilik qilishgan. Ota o'g'illarini ko'rish uchun har safar beshta qo'tonga alohida-alohida borgan. Shundan keyin "Sen qayerdansan" deb so'rashsa "besh qo'toni bor joydanman" deb javob berishgan. Shu tariqa "Beshqo'ton" toponimi vujudga kelgan.

"Xo'shmon" bu kichkinagina qishloqda asosan turkmanlar istiqomat qiladi. Shu sababli bu nom ham turkman tilidan kelib chiqqan. Qadimda bu qishloq ustidan karvon

yo'li o'tgan, dam olish uchun to'xtagan yo'lovchilarga qishloq aholisi uylaridan joy berib, non-suv berishgan. Yo'lovchilar esa bundan mammun, xursand bo'lib "xo'shman" ya'ni xursandman, mammunman deyishgan va shu tariqa bu toponim paydo bo'lgan.

"Hojixo'r" ot+sifat, qo'shma so'z bo'lib, kompozitsiya usulida yasalgan. Bu qishloqning ta'rifi yuqorida aytganimiz "Xo'shmon" toponimining butunlay teskarisi. U qishloq aholisi yo'lovchilarga yaxshilik qilishgan bo'lsa, bu yerdagilar o'tib ketayotgan hojilarni talab, mol-mulkini tortib olishgan.

"Guliston"-bu toponim "gul" asosi va "-iston" morfemasining qo'shilishi natijasida derivatsion usulda hosil bo'lgan. Ma'nosi gullari ko'p bo'lgan joyni anglatadi.

"Navbahor" toponimi nav+bahor tarzidagi qo'shma so'z bo'lib kompozitsiya usulida yasalgan. "Nav" bu tojikcha "yangi" degan ma'noni anglatadi. Demak qishloq nomi "yangi bahor" tushunchasini beradi. "Obodon"- obod so'ziga –on morfemasini qo'shish natijasida derivatsion usulda hosil bo'lgan.

"Xalqobod"-xalq+obod(ot+sifat) so'zlarining qo'shilishi natijasida kompozitsiya usulida hosil bo'lgan. "Qorakamar"-qora+kamar(sifat+ot) kompozitsiya usulida yasalgan. Muzrabot tumanida yuqorida tahlil qilingan toponimlardan tashqari Boldir, Gagarin, Galatayoq, Cho'ponchi, Qizilolma, To'da, Sopollitepa, Sholikor, Oqtoshobod, Sovetobod, Erped, Yangiobod, Beshkappa, Quyun va hakozo kabi ko'plab toponimlar mavjud. Ularni ham so'zma-so'z tahlil qilinganda qanday leksik ma'no anglatishini bilib olishimiz oson.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har qanday hududdagi toponimlar tahlil qilinganda uning haqiqiy leksik ma'nosи kelib chiqadi. Keyinchalik turli tushunarsiz toponimlar paydo bo'lmasligi uchun har bir toponim tahlil qilinishi, qandat leksik ma'nolar anglatishi o'rganilishi zarur. Hozirgi kun uchun uning ma'nolarini qidirib toppish unchalik qiyin emas, biroq bir necha ming yilliklar o'tgandan keyin bu toponim haqida ma'lumot biluvchi shaxslar mavjud bo'lmasligi, so'z va morfemalar rivojlanib o'zgarib ketishi mumkin. Keyin o'rganilgan taqdirda ham turli taxminlarga asoslanib qolinadi. Toponimlarni o'rganish ham xuddi boshqa sohalarni o'rganish kabi zarur va muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Toponimika[Matn]: O'quv qo'llanma. Q.M.Hakimov, M.T.Mirakmalov.-Toshkent: "Tafakkur avlodи", 2020.
- 2.Toponimika: O'quv qo'llanma. S.Qorayev.-T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2006.
- 3.Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika(o'quv qo'llanma)/ "Navro'z" nashriyoti.- Toshkent,2017.
- 4.Toponimika: "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /Qo'chqor Hakimov; mas'ul muharrir Qoraev S.-Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016.